

**О‘ZBEK VA QORAQALPOQ O‘TOVSOZLIK SO‘Z/TERMINLARI
LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA
(MADANIYATLARARO ALOQA VOSITASI ASPEKTIDA)**

Berdiyev Xusan Xolnazarovich

Filologiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent

Samarqand, Iqtisodiyot va
pedagogika universiteti Samarqand kampusi dotsenti

Annotatsiya

O‘zbek va qoraqalpoq tillarining o‘tovsozlik terminologik tizimida faol ishlatib kelinayotgan turli shakldagi terminlar mavjud. Ularning ba’zilari qadim davrlardayoq maxsus termin sifatida qo‘llanib kelingan. O‘tovsozlik terminlari o‘zbek xalqi bilan bir qatorda, qardosh qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, uyg‘ur va turkman tillari vakillari nutqida ham keng qo‘llanadi.

O‘tovning qurilish materiallari, materiallarning turlari, xususiyati, vazifasi, ahamiyati, o‘tov materiallari bezaklari, to‘shanchi va shu kabi qator narsa-predmetlarni anglatuvchi so‘z/terminlar so‘zlar mavjud. O‘tovsozlik leksikasi nafaqat lingvistik manbalar va og‘zaki nutq materiallari, shuningdek arxeologik, etnografik, badiiy-folkloristik tadqiqotlar natijalariga ham asoslangan holda tadqiq etiladi. Bu terminologik qatlamga oid materiallarni chuqur o‘rganish hamda ular bo‘yicha maxsus lingvistik tadqiqot olib borish lozim degan xulosaga kelish imkonini beradi. O‘zbek va qoraqalpoq tillarining o‘tovsozlik leksikasi til leksik sistemasida alohida o‘rin tutadi, qadimiy meros bilan bog‘liq muhim lingvistik qadriyat hisoblanadi. Zero, Soha leksikasidagi so‘zlar semantikasi, turli davrlarga oid lingvistik birliklar, tarixiy dialektal so‘zlarning ma’no ko‘lami o‘tov va u bilan bog‘liq so‘z/terminlarda aks etib kelgani holda, hozirga qadar ular ilmiy jihatdan keng ma’noda tadqiqot ob’ektiga aylanmagan.

Kalit soʻzlar: turkiy xalqlar, oʻzbek va qoraqalpoq tillari, leksik qatlam, mentalitet, terminologiya, soʻz/terminlar, oʻtov, oʻtovsozlik leksik sistemasi.

Kirish. Maʼlumki, oʻtov qadimiy milliy madaniyatning yorqin namunasi hisoblanadi. Soha leksik sistemasi tadqiqi hozirgi globallashuv jarayonida alohida ahamiyatga ega. Tilning lugʻat tarkibida xalqning ijtimoiy hayoti, turmushi, kasb-kori, qarashlari, anʼana-lari, urf-odatlar bilan bogʻliq boʻlgan tushunchalar va bu tushunchalarni aks ettiradigan leksik qatlam hamda uning tarkibiy bir qismi boʻlmish terminologik sistemalari rivoj topib keldi. Shubhasiz, ular milliy mentalitet va tasavvurlar asosida shakllangan, taraqqiy etgan, qadriyat darajasiga koʻtarilgan. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da keltirilishicha, “Mentalitet [nem. Mentalität < lot. mens, mentis – aql, idrok]” jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxs-ning mentaliteti ularning oʻziga xos anʼanalari, rasm-rusmlari, urf-odatlar, diniy eʼtiqod va irimlarini qamrab oladi.* Binobarin, oʻtovsozlik leksikasi tadqiqi xalqining maʼnaviyati, urf-odatlarini yoritib berish, tilshunoslikning dialektologiya, leksikologiya, leksikografiya, terminologiya, semasiologiya, soʻz yasalishi, morfologiya kabi bir qator boʻlimlariga xos nazariy fikrlarni toʻldirish, ularga aniqliklar kiritish nuqtai nazaridan ham foydalidir.

Tadqiqot metodlari. Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan foydalaniladi. Uning obʼektini ilmiy manbalar materiallari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Soʻz tilning asosiy struktur-semantik birligi boʻlib, borliq hodisa-lari, narsa va predmetlarning xususiyatlarini

* Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдлик, II жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 580.

nomlashga xizmat qiladi va u fonetik, leksik, semantik va grammatik belgilarning majmui sifatida amalda qo'llanadi.*

So'zning barqaror semantik strukturasini ta'minlovchi semalardan tashqari, kontekstuallik ham borki, bu haqda L.A.Novikov shunday deydi: "Kontekstual semalar tufayli nutq (matn)da til birligi ma'nosining konnotativ nozikliklari yuzaga keladi. Konnotativ ma'nolar asosida esa yasama (okkazional) ma'no tarkib topadi".*

Ko'rinadiki, so'z o'ziga xos o'ta murakkab lingvistik hodisa. So'zga berilgan ta'riflarning ko'pligi va rang-barangligiga hayratlanmasa ham bo'ladi. Chunki tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarining serma'no va serqirra ekanligi ularning lisoniy ifodasi bo'lmish so'zda ham o'z aksini topadi.*

Termin so'zi M.Fasmerda ko'rsatilishicha, lotincha *terminus* "chegaraviy belgi" ma'nosini ifodalaydi.* O'zbek tiliga u XX asrning 40-50 yillarida kirib kelgan. Bu davrdan oldin «istiloh» va «atama» so'zlaridan foydalanilgan.*

Tadqiqotlarda terminologiya quyidagi ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Terminologiya bu maxsus ma'noni ifodalovchi so'z va so'z birikmalarining yig'indisi, majmui. 2. Terminologiya bu terminlar, ularning grammatik tuzilishi va tilda amal qilishi bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik fanining bir bo'limidir.*

A.A.Reformatskiyning ta'kidlashicha, termin doimo muayyan termi-nologik maydonga aloqadorlik kasb etadi va ana shu maydon ichida u birgina ma'noga ega bo'ladi.*

* Гак В.Г. Слово // Лингвистических энциклопедический словарь. – М.: Энциклопедия, 1990. – С. 464.

* Новиков Л.А. Сема // Лингвистических энциклопедический словарь. – М.: Энциклопедия, 1990. – С. 437.

* Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Тошкент, 2004. – Б. 9.

* Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: В 4 т. / Пер. с нем. и доп. О.Н. Трубачева. – 2-е изд., стер. – М.: Прогресс, 1987. – С. 48.

* Аҳадова М. Терминми, атамами, истилох? // Филология масалалари. – Тошкент, 2007. -№ 4. – Б. 24-27.

* Ражабов А.Н. Вопросы узбекской лингвистической терминологии в сопоставлении с русской: АКД. – Ташкент, 1993. – С 8.

* Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. В сб: «Вопросы терминологии». – М., 1961. – С. 52.

Demak, ma'lum bir sohaga oid predmet yoki tushunchalarni ifodalovchi terminlar bir-biri bilan ma'nosi, leksik-grammatik strukturasi va boshqa xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda terminologiyani tashkil etadi.

Nomenklaturaga bir xil turdagi predmetlarni ifodalash uchun xizmat qiladigan so'zlarni kiritish kerak. Shunga ko'ra, nomenklaturani terminlar bilan atoqli otlar o'rtasidagi bog'lovchi qatlam deb izohlaydi Leychik V.M.*

G.O. Vinokurning ta'kidlashicha, terminlar bu maxsus so'zlar emas, balki maxsus vazifadagi so'zlardir.*

G.O. Vinokur, V.M. Leychik, A.I. Moiseev, R. Doniyorov singari ko'pchilik olimlarning fikricha, termin yasash xususiyati faqat otlargagina xosdir. Terminologiyaga bag'ishlangan monografik ishlarning ko'pchiligida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan, shuningdek, nomlash funksiyasini bajaruvchi so'zlarga termin sifatida qaraladi. Ot so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan ko'proq semantik imkoniyatlarga ega bo'lib, yuqoridagi sifatlarning barchasiga egadir.

A.A. Reformatskiyning fikricha: «...zero, terminning asosiy funk-siyasi narsa va hodisalarni nomlashdan iborat ekan, demak, terminlar vazi-fasida asosan ot keladi».* Shuningdek, R.Doniyorovining tadqiqotida ham shunday fikr mavjud: «faqat ot turkumiga oid so'zlarga terminologiya ob'ekti bo'la oladi».* Biroq V.N.Prokorovanning fikricha, «Termin bo'lishi kerak bo'lgan tushunchalar ko'lam shunchalik kengki, ularni ifoda etish uchun faqatgina otning semantik imkoniyatlaridan foydalanish yetarli emas».*

*Лейчик В.М. Номенклатура – промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – С. 13-25.

* Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. Т. V. Сб. статей по языковедению. – М., 1939. – С. 5.

* Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М., 1986. – С. 163-198.

* Дониёров Р. Ўзбек лексикографиясининг муҳим бир масаласи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. -№ 6. – Б. 21.

* Прокорова В.Н. Синонимия в терминологии // Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – Ч. II. – М., 1971. – С. 471-473.

V.G. Gakning ta'kidlashicha, "Termin funktsiya - leksik birlik qo'lla-nishining bir turi. Quyidagi ikki xususiyatga ega bo'lgan har qanday lug'aviy birlik termin bo'la olishi mumkin: nimanidir ifodalay olish va tushunchalar qatorida muayyan o'rinni egallash xususiyatlari".*

Sohaviy leksika ikki planli, ya'ni termin sifatida ham, notermin sifatida ham qo'llanadigan lug'aviy birlikdir. Binobarin, yuqorida uni so'z/termin atamasi bilan ifodalashda ilmiy va mantiqiy asos bor.

Ikki planli lug'aviy birliklar tipologiyasini mazmun plani nuqtai nazaridan o'rganar ekan, V.G.Gak termin va notermin funktsiyalari quyidagi holatlarda o'zaro muvofiq bo'lishini ko'rsatib beradi: ifodalanishlari har xil bo'lganda va shunga muvofiq tarzda mazkur birlikning turli ma'nolari bilan kelganda; turlicha ta'riflanadigan bir xil ifodalanishga ega bo'lganda; bir xil aniqlanadigan ifodalanishga ega bo'lganda.*

M.Abdievning monografiyasida ta'kidlanganidek, sohaga oid lug'aviy sistema masalasi tilshunoslikda istalgan terminologik tizimning qat'iy sistemaviy qurilishga ega ekanligi, terminlarning ma'nosi aniq paradig-matik munosabatlar (lug'aviy-terminologik paradigmalar) asosida belgila-nishi ko'p marta muhokama qilingan va ma'lum darajada fanimizda aksio-matik holatga aylangan deyish mumkin.*

O'zbek tilshunoslari ham terminologiyaning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha ish olib borib, muayyan tadqiqotlarni amalga oshirdilar. U.Tursunov, S.Ibrohimov, A. Hojiev, E.Begmatov, Olim Usmonov, X.Doniyorov, H.Jamolxonov, N.Mamatov, S.Akobirov, S.Usmonov, R.Doniyorov, N.Qosimov, N.Mahkamov, Sh.Hakimov, T.Tursunova, A.Madvaliev, M.Abdiev va boshqa olimlarning ishlarida o'zbek termino-logiyasining turli masalalari yoritilgan, terminshunoslikning xilma-xil jihatlar: uning shakllanish yo'llari, yasaliush usullari, turli fan sohalarida terminlarning ishlatilishi, terminologiyaning boshqa dolzarb masalalari, o'zbek terminologiyasining

* Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии // Семантические проблемы языков науки / Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ, 1971. – С. 68.

* Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент, 2004. – Б. 14.

* Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент, 2004. – Б. 31.

bir qismini tashkil etuvchi kasb-hunar terminlari borasida muhim fikrlar bayon etilgan.

Prof.S.Ibrohimovning ishlarida Fargʻona viloyati kasb-hunar soʻz/terminlari, aniqrogʻi, *degrezlik, rixtagarlik, temirchilik, pichoqchilik, chilangarlik, taqachilik, qulfgarlik, anjomsozlik, miskarlik, zargarlik* kabi 20 ga yaqin “metallsozlik” hamda kulolchilik, tandirchilik, suvoqchilik singari “nometallsozlik”ka oid soʻz/terminlar tadqiq qilingan. M.Abdiev-ning doktorlik ishida Samarqand viloyati kasb-hunar terminlari sistem tahlil qilingan. Ishda *gilamchilik, doʻppichilik, kashtachilik* kabi soha terminlari keng va batafsil oʻrganilgan. Shuningdek, Sh.Norboevaning ishida esa Xorazm vohasi kasb-hunarlarining onomasiologik tahlili berilgan.

Maʼlumki, Oltoy hududlarida II asrning boshlarida yuzaga kelgan buyuk koʻchishlar natijasida koʻchmanchilikka xoslangan (mobil) roʻzgʻor buyumlari rivojlana boshlagan. Ularni ifodalovchi soʻzlar ommalashib, oltoy tillarining uy va oʻtov jihozlari leksikasini shakllantirgan.*

Mazkur leksik sistemaga oid birliklar va ularning urf-odat hamda qadriyatlar bilan aloqasi, turkiy xalqlar hayot tarzining oʻziga xos jihat-lari, tabiiy, ijtimoiy, maʼnaviy ildizlarga tutash xususiyatlari koʻproq etnografik ilmiy adabiyotlarda yoritilganligini aytib oʻtmoq joiz.

Oʻtov boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar masalasida shuni aytish mumkinki, turli mavzular doirasidagi ishlarda mazkur masalaga munosabat bildirib oʻtilgan va ular ham har xil fanlar yoʻnalishidadir.

Osiyoda oʻtovning ikki shakli keng tarqalgan. Qozoq, qirgʻiz, oʻzbek, turkman singari turkiy xalqlar oʻtovlari va moʻgʻul, buryat, qalmiq xalqlariga tegishli moʻgʻul oʻtovlari. Mazkur hududlar aholisi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, lingvomadaniy jihatdan aloqada boʻlgan davlatlarda yashaydi.

Uylar transformatsiyasi jarayoni insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi eng muhim omil sanaladi. Qurilishga aloqador boʻlgan tasavvurlar turli urf-odatlarining paydo

* Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика: ДДА. – Тошкент, 2011.– Б. 42.

bo'lishiga ham zamin yaratgan. Asta-sekinlik bilan ular-ni bajarish an'ana tusini olgan va soha terminlarining shakllanishida o'ziga xos rol o'ynagan. Tabiat va olam haqidagi tasavvurlarning yashash joy-lari bilan bog'lanishi bu terminologik sistema tarkibini yanada boyitgan. An'anaviy qurilish tizimiga ega bo'lgan o'tov bu jihatdan o'ziga xosdir. O'tovsozlik leksikasi madaniy hayot sivilizatsiyasining ko'pgina hodisalarini o'zida aks ettirib kelgan. Mazkur uy tipi materiallari ornament belgilari ham shundan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan, o'tovsozlik leksikasi o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Turkiy tillar o'tovsozlik leksikasining katta qismi umumturkiy asos-da paydo bo'lgan. Ularda ayrim fonetik farqlar kuzatiladi. Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, terminlar qadimgi yozma yodgorliklar tilida ham mavjud. S.E.Malov ishlarida *badiz* (tasvir), *badizchi* (tasvirchi, usta), *qaraq* (chodir, o'tov keragasi), *kumush*, *altun*, *otag* kabilar qayd etiladi.*

Sh.Allaniyazovaning ishida ko'rsatilganidek, turkiy tillarda so'z ifodalayotgan ma'no deyarli bir xil, ularda ayrim fonetik, semantik o'ziga xosliklar kuzatiladi. Masalan, qoraqalpochka *kara uy* yoki *kiyiz uy* "o'tov" qozoq tilida *kiyiz uy*, turkman tilida *gara oy*, o'zbek tilida *qara uy*, boshqird tilida *tirme*, no'g'oy tilida *terme* shakllarida,* shuningdek qirg'iz tilida *boz uy* tarzida uchraydi. Xuddi shuningdek, o'tov qismlari nomlari ham turkiy tillarda bir xil aytiladi: Masalan, qoraqalpochka: *kerege*, *kanat*, *tuqluk*, *uuyk*, *uzik*, *belbeu*, *basqur*; qirg'izcha: *kerege*, *tunduk*, *uuk*, *uzik*, *bosog'o*, *jabyq bash*, *tegirich*; turkman tilida *ganat*, *terep*, *tuynuk*, *uk*, *uzuk*, *yup*; qozoq tilida *kerege*, *qanat*, *kök*, *yesik*, *shañyraq*, *uuyk*, *uzik*, *tundik*, *beldeu*, *basqur*; no'g'oy tilida: *terme ag'ash*, *shag'arak*, *uvuq*, *belden* va b.* Bunday holat tarixiy jarayonda noqardosh tillarga o'tgan so'z/terminlar misolida ham kuzatiladi. Chunonchi, nafaqat turkiy, balki mo'g'ul tili o'tovsozlik leksika-sida ham ayrim terminlar mavjudki, ular ham fonetik farqlar bilan qo'llanadi: o'zb.: *chang'aroq*, qozq.: *shañyarak*, mo'g'::

* Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. – М. – Л., 1951 – С. 405.

* Алланиязова Ш. Термины прикладного искусства в каракалпакском языке: АКД. – Ташкент, 1986. – С. 9-10.

* Алланиязова Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 10.

*sagryk**; qalm.: *shanaran** kabi. Shuningdek, mo'g'ul o'tovi nomi *ger* (*ker*, *ger*) qadimgi turkiy *keragu* termini-ga aloqadorlikda *chodir*, *o'tov* ma'nolarini ifodalashi manbalarda ko'rsatilgan.*

Xulosa va tavsiyalar. O'tovning turkiy tipi leksik sistemasiga oid keng ko'lamda bajaril-gan tadqiqotlarning mavjud emasligi uni o'rganishning dolzarbligidan dalolat beradi.

O'tovsozlik leksikasiga xos so'zlarni tarixiy va ilmiy manbalar asosida tadqiq etish lozim. Bu esa, tabiiyki, qadriyatlarga aloqador bo'lgan ma'naviy-moddiy merosni o'rganish, ularning lingvistik xususiyatlariga oid o'ziga xosliklarni tadqiq etish hamda til lug'at boyligi xazinasida tutgan o'rnini belgilashdek dolzarb vazifa bilan chambarchas bog'liqdir.

* Кенесбаев С. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. - Алматы, 1977. – С. 34.

* Арғынбаев Х.А. Қазақ халқындағы семья мен неке. - Алматы, 1973. – С. 10.

* Козин С.А. Сокровенное сказание. Монгольская хроника 1240 г. - М.,1941. – Т. I. – С. 12.